

**TARIXIY ME'MORIY OBIDALAR ORQALI MADANIY VA DINIY AN'ANALARNING
AKS ETISHI**

Umida Elmuratova

Ilmiy rahbar.

Abdullayeva Gulorom Maxmudjon qizi

Sharq tillari fakulteti koreys tili yo'nalishi, 3-kurs talabasi.

+998770028952 tolqina06@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18556009>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixga insonlardan ham ko'ra ko'proq guvohlik bergan tarixiy me'moriy obidalar haqida so'z yuritiladi. Tarixiy binolarning qurilish jarayoni, ularda qo'llanilgan me'moriy uslublar hamda ushbu uslublarning ma'naviy va ramziy mazmuni yoritib berilgan. Maqolada Koreya tarixining betakror go'zalligini o'zida mujassam etgan Kyongbokkung saroyi hamda o'zbek xalqining boy me'moriy merosini namoyon etuvchi Registon ansambli misolida konfutsiychilik va islom dini an'analarning me'morchilikdagi aks etishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kyongbokkung saroyi, Registon ansambli, konfutsiychilik an'analar, islom dini an'analari.

Tarixiy binolar har bir xalqning o'tmishi, madaniyati va dunyoqarashini o'zida mujassam etgan bebaho meros hisoblanadi. Ular nafaqat me'moriy obida, balki muayyan davrning siyosiy, diniy va falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi tarixiy hujjat vazifasini ham bajaradi. Dunyo tarixida turli sivilizatsiyalar o'zining noyob me'moriy uslublari orqali ajralib turgan. Ayniqsa, Sharq me'morchiligi diniy va falsafiy ta'limotlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Ushbu maqolada Koreya va O'zbekiston hududlarida shakllangan me'moriy an'alar misolida tarixiy binolarning ahamiyati yoritiladi.

Kyongbokkung saroyi Koreya tarixidagi eng muhim va qadimiy saroylardan biri bo'lib, Choson sulolasi davrida qurilgan. Ushbu saroy konfutsiychilik ta'limoti ning asosiy tamoyillariga mos holda barpo etilgan. Saroy arxitekturasi tartib, muvozanat va tabiiylikka asoslangan bo'lib, inson va tabiat uyg'unligini aks ettiradi. Konfutsiychilikda ierarxiya va axloqiy me'yorlar muhim o'rin tutganligi sababli, saroy hududidagi binolar joylashuvi ham qat'iy tartib asosida tashkil etilgan. Saroy nafaqat hukmdor qarorgohi, balki davlat boshqaruvi va marosimlar o'tkaziladigan muhim markaz bo'lgan.

Registon ansambli Markaziy Osiyodagi eng mashhur me'moriy majmualardan biri bo'lib, Samarqand shahrining tarixiy markazini tashkil etadi. Ushbu ansambl Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridan iborat bo'lib, islom me'morchiligining yuksak namunasi hisoblanadi.

Registon ansamblida islom dini an'analari, ilm-fan va ma'rifatga bo'lgan yuksak e'tibor yaqqol namoyon bo'ladi. Geometrik naqshlar, muqarnaslar va Qur'on oyatlari bilan bezatilgan devorlar diniy va estetik uyg'unlikni ta'minlagan. Bu majmua nafaqat diniy, balki ilmiy-ma'rifiy markaz sifatida ham xizmat qilgan.

Koreya va O'zbekiston tarixi, adabiyoti hamda san'ati o'rtasidagi o'zaro o'xshashliklar ko'plab olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qayd etilgan.

Ushbu o'xshashliklar ikki xalqning madaniy ildizlari, dunyoqarashi va tarixiy taraqqiyotidagi umumiy jihatlar bilan izohlanadi. Aynan shu mushtarakliklar bugungi kunda ikki davlat o'rtasida nafaqat madaniy, balki iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikning rivojlanishiga ham mustahkam zamin yaratmoqda.

Qadimda Koreya xalqi o'z podsholigini mustahkamlash, shuningdek, kelajak avlodlarga o'zining shonli va murakkab tarixidan xabar berish maqsadida ko'plab tarixiy obidalarni barpo etgan. Tarixiy obidalar o'zbek xalqining ham milliy o'ziga xosligini, muayyan davr ruhi va muhitini ifodalovchi muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Bu inshootlar o'zining tashqi go'zalligi bilan kishilarni rom etish bilan birga, ming yillik tarixiy voqealar, quvonchli va fojeali lahzalarni o'zida mujassam etganligi sababli, bugungi kungacha olimlar va tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilib kelmoqda.

O'zbekiston hududidagi deyarli har bir shahar tarixiy obidalarga boy bo'lsa-da, Registon ansambli nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo miqyosida e'tirof etilgan noyob me'moriy majmualardan biri hisoblanadi. Ushbu ansambl o'z davrida eng mashhur va hashamatli me'moriy inshootlardan biri bo'lib, o'tmishning gullab-yashnagan davrlari bilan bir qatorda, murakkab va qonli tarixiy jarayonlarni ham aks ettiradi. Tarixiy obidalar orqali biz o'sha davr kishilarining diniy qarashlari, ma'naviy dunyosi va hayot falsafasi naqadar yuksak bo'lganligini anglashimiz mumkin.

Koreyaning eng mashhur tarixiy majmualaridan biri bo'lgan Kyongbokkung saroyi koreys xalqining mehnati, qadriyatlarini va me'moriy tafakkurining yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Saroy qurilishi Choson sulolasi asoschisi qirol Txejo davriga borib taqaladi. U 1395-yilda mashhur davlat arbobi va mutafakkiri Chon Do-jon tomonidan loyihalashtirilgan. Qirollikning asosiy saroyi sifatida bunyod etilgan Kyongbokkung tarix davomida bir necha bor qayta tiklangan.

Xususan, 1592-yilda Imjin urushi paytida Yaponiya bosqini natijasida butunlay vayron qilingan bo'lsa, 1867-yilda qirol Kjongg davrida, uning otasi Xungson Devongun tashabbusi bilan qayta tiklangan.

Kyongbokkung saroyi koreys me'moriy san'atini o'zida to'liq namoyon etgan majmua hisoblanadi. Konfutsiychilik an'analari asosida bunyod etilgan ushbu saroyda soddalik, tartib, ierarxiya va muvozanat asosiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Binoning eng diqqatga sazovor qismi uning yog'ochdan ishlangan, egri shakldagi tom qismi bo'lib, bu element konfutsiy ta'limotida erkinlikka intilish, tinchlik va osoyishtalik ramzi sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, tom qismi yovuz ruhlarni haydash va saroyini himoyalash ma'nosini ham anglatadi. Tom konstruksiyasida birorta ham metall moslama ishlatilmasdan, yog'och qismlarning bir-biriga mustahkam ulanib ketgani koreys me'morlarining yuqori mahoratidan dalolat beradi.

Madaniy jihatdan o'xshashliklarga ega bo'lgan koreys va o'zbek xalqlari me'moriy yodgorliklar qurilishida ham umumiy jihatlarga ega. Kyongbokkung Choson sulolasining dastlabki davrida qurilgan bo'lib, davlat marosimlari o'tkaziladigan asosiy saroy vazifasini bajargan. Ushbu saroydan tashqari yana beshta qo'shimcha saroy mavjud bo'lib, ularning har biri ma'lum vazifani bajargan.

Masalan, Kyongbokkungning g'arbiy qismida joylashgan Gyonghuigung saroyi Sengvol nomi bilan mashhur bo'lgan.¹[Madaniyati bor Koreya kitobi. 65-bet]. Changdeokkung favqulodda holatlarda foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, amalda qirolning asosiy yashash joyiga aylangan. Chonggyeongkung malikani e'zozlash maqsadida qurilgan, Deoksugung esa o'zining tosh devor yo'lagi va Koreya tarixidagi og'riqli voqealarni aks ettirishi bilan mashhurdir.

Registon ansambli esa bugungi kunda Samarqand shahrining ramziga aylangan bo'lib, sayyohlar uchun eng diqqatga sazovor maskanlardan biridir. Ushbu majmuaning qurilishi uzoq yillar davom etgan. Jumladan, Ulug'bek madrasasi 1417–1420-yillarda Mirzo Ulug'bek tomonidan qurdirilgan bo'lsa, Tillakori madrasasi Yalangto'sh Bahodir tomonidan bunyod etilgan.

Har bir madrasa o'ziga xos me'moriy yechim va yuksak san'at mahorati bilan ajralib turadi.

Sherdor madrasasi peshtog'idagi sher tasviri bilan mashhur bo'lsa, Tillakori madrasasi ichki qismi oltin suvi bilan bezatilgani sababli shunday nomlangan.

Islom me'morchiligining yorqin namunasi bo'lgan Registon ansambli arab yozuvlari, geometrik naqshlar va ramziy bezaklar bilan ajralib turadi. Gumbazlarning yumaloq va tik shaklda qurilishi islom dinida insonning Allohga bo'lgan umidi va e'tiqodini ifodalaydi. Koreya me'morchiligida esa gul naqshlari muhim o'rin tutadi.²[Guldevor kitobi.45-bet.] Kyongbokkung saroyi asosan gul naqshlari bilan bezatilgan bo'lib, bu bezaklar koreys xalqining kelajagi yorqin bo'lishiga bo'lgan ishonchni anglatgan.³[Koreya san'ati tarixi kitobi.23-bet.]

Bundan ko'rinib turibdiki, Registon ansambli va Kyongbokkung saroyi o'z xalqlarining tarixiy xotirasi, diniy qarashlari va estetik tafakkurini aks ettiruvchi noyob me'moriy yodgorliklardir. Har bir madrasa va saroy o'z davrining ruhini ifodalaydi: Ulug'bek madrasasi – ilm, Sherdor – jasorat, Tillakori – ma'naviyat va go'zallik timsolidir. Hukmdorlar o'z qudratini nafaqat harbiy g'alabalar, balki bunyod etilgan me'moriy obidalar orqali ham tarixda muhrlab qoldirishga intilganlar. Amir Temurning "Kim bizning qudratimizga shubha bilan qarasa, biz qurgan binolarga boqsin", degan so'zlari tarixiy obidalarining naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Kyongbokkung saroyi va Registon ansambli turli hudud va madaniyatlarga mansub bo'lishiga qaramay, har ikkalasi ham o'z davrining diniy, falsafiy va ijtimoiy qarashlarini me'morchilik orqali ifodalab bergan. Tarixiy binolar xalqning madaniy xotirasi bo'lib, ularni o'rganish orqali o'tmish va bugungi kun o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash mumkin. Ushbu obidalar nafaqat tarixiy yodgorlik, balki kelajak avlod uchun ma'naviy va madaniy meros hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Guldevor kitobi.
2. Madaniyati bor Koreya kitobi.
3. Koreyaning san'at tarixi kitobi. Yangsovon.2005.
4. Registon maydoni - Vikipediya https://uz.wikipedia.org/wiki/Registon_maydoni

¹ Madaniyati bor Koreya kitobi.65-bet.

² Guldevor kitobi.45-bet.

³ Koreyaning san'at tarixi kitobi. Yangsovon.2005.

5. Kyongbokkun - Vikipediya <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kyongbokkun>
6. Umida, E. (2025). KIM SAKKAT VA MUQIMIY ASARLARIDA SATIRANING QIYOSI. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 2(2), 156-159.
7. Elmuratova, U., & Eshonqulova, Z. (2022). KOREYS VA O 'ZBEK QADIMGI XALQ OG 'ZAKI IJODIDA MUSHTARAKLIK. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar , 3 (6), 489-493.
8. Mamatqulova, K. A., Amanullayeva, K. M., & qizi Shuhratova, V. J. Considerations for teaching Japanese literature. International journal of health sciences, 6(S7), 377-385.
9. Назирова, Х. (2019). Художественная интерпретация чайной церемонии в японской литературе (на примере романа Ясунари Кавабата «Тысячекрылый журавль»). Восточный факел, 4(4), 57-69.
10. Маматкулова, Х. А. (2022). Этномаданий Маъноларнинг Бадийи Матнда Ифодаси. Kresna Social Science and Humanities Research, 4, 30-33.